

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DJUMABAYEV G‘ULOMJON XALILLAYEVICH

**HALQALI IP YIGIRISH MASHINALARINI TAKOMILLASHTIRIB
SIFATLI IP ISHLAB CHIQRISH**

**05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Contents of the abstract of doctoral dissertation

Djumabayev G‘ulomjon Xalillaevich

Halqali ip yigirish mashinalarini takomillashtirib sifatli ip ishlab
chiqarish..... 3

Джумабаев Гуломжон Халиллаевич

Совершенствования кольцепрядильных машин для выработка
качественной пряжи..... 31

Djumabaev Gulomjon Xalillaevich

Improvement of ring spinning machines for the production of high-
quality yarn..... 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DJUMABAYEV G'ULOMJON XALILLAYEVICH

**HALQALI IP YIGIRISH MASHINALARINI TAKOMILLASHTIRIB
SIFATLI IP ISHLAB CHIQRISH**

**05.06.02- To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc /T753 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.paxtasanoatilm.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Quliyev Toxir Mamarajapovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Avazov Komiljon Raxmatovich
texnika fanlari doktori, professor

Erkinov Zokirjon Erkinboy o'g'li
texnika fanlari doktori, dotsent

Urozo Mustafokul Kulturayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Etakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.30/30.11.2021.T.141.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 25-fevral soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 1-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro'yhatdan o'tgan 39-son). 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "15" fevral kuni tarqatildi.

(2025 yil "15" fevral 39-raqamli reestr bayonnomasi).



Q. Jumaniyazov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash rais o'rinbosari, t.f.d., prof.

M.R. Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., k.i.x.

R.Sh. Sulaymanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda tabiiy tolalar, xususan, paxta mahsulotlariga talab katta. Har yili barcha mamlakatlar ishlab chiqaruvchilari ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot turlarini kengaytirish va sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida bugungi kunda ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyolardan qat'i nazar, paxta, jun, ipak shuningdek, noto'qima yoki sun'iy tolalar ishlab chiqarishni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan uzoq vaqt davomida asosiy sanoat xom ashyosi paxta tolasi edi, ammo hozirda kimyoviy tolalarning ulushi matolar ishlab chiqarishdan sezilarli darajada oshib ketdi, tabiiy tolalarning ulushi esa kamaydi. Bu tabiiy va kimyoviy tolalardan, shuningdek, trikotaj matolardan aralash matolarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi¹.

Jahonda ip va mato bozorida mahsulotlar sifatiga bo'lgan raqobat yuqori darajada ekanligi, miqdori va assortimentlarini tezkor o'zgartirishni imkonini beradigan zamonaviy, raqamlashtirilgan, avtomatlashtirilgan texnika va texnologiyalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, yigirilgan iplarni yaxshilash, sifat ko'rsatkichlarini tubdan oshirish, halqali usulda ishlab chiqarilgan ip sifati va raqobatbardoshligini oshirishning samarali tizimlarini yaratish, korxonalarda yuqori samarali texnika va texnologiyalarni, o'lchov va nazorat vositalarini ishlab chiqish, halqali yigirish mashinalarining konstruktiv elementlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirish to'g'risida hamda sohaga yangi innovatsion texnologiyalarini joriy etish orqali raqobatbardosh, resurstejamkor hamda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida², jumladan «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash hamda yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishda to'qimachilik sohalarining barcha ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sirini o'rganish, 2026 yilga qadar paxta tolasidan yigirilgan iplarni to'liq qayta ishlashni yo'lga qo'yish, tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni yaratish va mavjudlarini rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini oshirish» bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, xususan, halqali usulda yigirilgan iplarning sifatini oshirishda mashina konstruksiyasini yaxshilash orqali ip notekisligini kamaytirish, uzilish kuchini oshirish, tukdorlik ko'rsatkichlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

¹ https://spravochnik.ru/ekonomika/vidy_i_formy_promyshlennosti/tekstilnaya_promyshlennosti/

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 - 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi «To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-155-son Farmoni, 2023-yil 10-yanvardagi «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-2-son Farmoni, 2022-yil 21-yanvardagi «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-53-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³.

Yigirilgan iplarni tayyorlash, unga ijobiy ta‘sir etadigan me‘yoriy texnologik parametrlarni ishlab chiqishning yangi texnika va texnologiyalarini yaratish alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Texnologik jarayonlarning meyoriy taxtlash parametrlari, halqali yigirish mashinalarida cho‘zish asboblarini, ularning detallarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan: California Institute of Technology, Massachusetts Institute of Technology (AQSH), University of Cambridge, University of Manchester (Buyuk Britaniya), Technische Universitat Drezden, Technische Universitat Munchen (Germaniya), Piroeus University of Applied Sciences (Gretsiya), China Textile Academy, Department of Textile Engineering (Xitoy), Moskva Davlat texnologiya dizayn universiteti, Sankt-Peterburg Davlat ishlab chiqarish texnologiyasi va dizayni universiteti (Rossiya), Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida (O‘zbekiston) keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tabiiy va sun‘iy tolalarni yigirish va to‘quv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda qator, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: mavjud halqali yigiruv mashinalarida ishchi organlari va konstruktiv elementlarini takomillashtirish asosida urchuq aylanishlar sonini 25000-30000 min⁻¹ gacha yetkazib ish unumdorligi va ip sifatini oshirish; ip yigirish va mato ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish; yuqori isme‘mol xususiyatlariga ega yigirilgan ip va matolar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish; halqali yigirish mashinalarida ip sifatini oshirishni ta‘minlovchi optimal parametrlarni aniqlash, turli assortimentdagi iplar ishlab chiqarish, ipning tarkibi va uning asosida mahsulot strukturasi va sifat ko‘rsatkichlarini bashorat qilish; yigirish

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi Werner Kltn, Herbert Stalder, Horrecks A.R., Anand S.C., Liu XJ, Su XZ., Su Xuzhong; Gao Weidong; Wu Tingting; Liu Xinjin; Tang, Zheng-Xue; Fraser W. Barrie; Wang Xungai <http://reutovtextil.narod.ru/about/htm.>, <http://www.marzoli.com>; www.rieter.com

mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish va ip ishlab chiqarishning mexanizmlaridan foydalanish asosida ip tashqi ko‘rinishini yaxshilash usullari va notekisligini kamaytirish va boshqalar.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda paxta va boshqa tolalardan yigirilgan iplarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini takomillashtirish, parametrlarini me‘yorlashtirish, strukturasi, ekspluatatsion xususiyatlari va tashqi ko‘rinishini yaxshilashga bog‘liq masalalar bir qator olimlar Werner Klein, Heins Ernest, Helbert Stalder, A.R.Horrocks, S.C.Anand, V.Ye.Zotikov, A.B.Teryushnov, P.P.Trikov, I.G.Borzunov, V.I.Budnikov, X.X.Ibragimov, M.M.Shukurov, T.R.Rashidov, B.M.Mardonov, Q.Jumaniyazov, U.X.Melibaev, Sh.K.Alishev, S.Matismoilov, A.Djuraev, J.Q.G‘ofurov kabi qator olimlar yetarlicha o‘z xissalarini qo‘shgan. Texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan va to‘qimachilik xom ashyosi, uni tozalash, yigirish, to‘qish, pardozlash, bo‘yash, ip mexanikasi, texnologik ko‘rsatkichlari va konstruktiv parametrlarini aniqlashda muayyan ilmiy va amaliy natijalar olingan.

Halqali yigiruv mashinalarida ip uzilishlarini kamaytiruvchi ipning yigiruv jarayonidagi hususiyatlarini oldindan bashorat qilish imkoniyatlarini beruvchi usullari yaratilsa, bu kelajakda zamonaviy to‘qimachilik ishlab chiqarishning asosi bo‘ladi. Ayrim texnologik jarayonlarni takomillashtirish tufayli sifatli, jahon andozalariga mos keluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish mazkur dissertatsiya oldiga qo‘yilgan masalalardan biri hisoblanib, bu muammolarga qaratilgan nazariy va amaliy masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №ITD-3-39-«Halqali usulda yigirilgan paxta ipining raqobatbardoshligini oshirish texnologiyasini yaratish» va №OID-1-1-«Chigitli paxta tayyor mahsulot yakunlangan texnologik tizim asosida ishlaydigan mini korxonada modelini yaratish» mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi halqali yigirish mashinasida pilikni cho‘zish jarayonlarini tadqiqi asosida, cho‘zish asbobi konstruktiv elementlarini takomillashtirish va parametrlarini rostlash orqali ip uzilishlar sonini kamaytirish va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ip yigirish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, tadqiqoti bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar, olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlilini o‘tkazish va ish unumdorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar tahlili asosida tadqiqotning yo‘nalishlarini belgilab olish;

halqali yigiruv mashinasida cho‘zish jarayoni va unga ta‘sir etuvchi omillarni, cho‘zish asbobi ishini bir maromda borishini ta‘minlovchi klipsalarni ishini o‘rganish va tadqiq etish;

cho‘zish asbobi valiklari ishini tadqiq etish asosida yangi konstruksiyadagi tarkibli, uch qatlamli valiklar yordamida pilikni bir tekisda cho‘zilishini ta‘minlaydigan takomillashgan texnologiyani tadqiq etib, matematik modelini olish;

nazariy tadqiqotlarda cho‘zish asbobi riflyali silindrlaridan tolalar harakatidagi tarangligini o‘rganish asosida, tolalarning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlarini ifodalovchi tenglamani riflyalar orasidagi masofalariga, qamrash burchaklariga ipdagi buramlar soniga va chiqishdagi tezligiga bog‘liqlik tenglamasini ishlab chiqish;

takomillashtirilgan cho‘zish asbobidan chiqish zonasida iplarda buram hosil bo‘lishdagi ipning harakatini dinamik tahlili yordamida buramlar soniga ta’sirida ipning mustahkamligini oshirish masalasining nazariy tadqiq etish va ip shakllantirish zonasi buramlarning umumiy bikrlilik koeffitsienti hamda silindrning radiusi aniq qiymatlarida ishqalanish kuchi chiziqli bog‘lanishini aniqlash;

tolali qatlamni bir tekisda cho‘zish va ingichkalash notekisligini kamaytirishda ikkinchi silindrning burchak tezlikligiga hamda ipning cho‘zishdagi uzunligiga bog‘liqligini nazariy aniqlash;

Tadqiqotning obekti sifatida halqali yigiruv mashinasi, cho‘zish asbobi elastik qoplamali yuk valiklari, klipsalar, yuklovchi valiklari olingan.

Tadqiqotning predmeti texnologik parametrlarning rasional optimal qiymatlari, iplarning uzilishlari, turlicha deformatsiyalanishi, ekspluatasion xususiyatlarini yaxshilash metodlari parametrlarining bog‘lanishlari va sifatli ip olishni ta’minlaydigan qiymatlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, qayishqoq ip mexanikasi, to‘qimachilik materialshunosligi, matematik statistika va amaliy matematika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta tolasi piligini cho‘zish asbobining yuk valigi takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan hamda uning parametrlari asoslangan;

halqali yigirish mashinasida ishlab chiqarilayotgan ip sifatini ta’minlash uchun tarkibli yuk valigi qoplamasi qattiqligi, diamerti va valikga yuk bosimining optimal parametrlari aniqlangan;

cho‘zish asbobida uchta riflyadan o‘tuvchi tolali qatlamning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlarini ifodalovchi, riflyalar orasidagi masofalariga, qamrash burchaklariga, ipdagi buramlar soniga va chiqishdagi tezligiga bog‘liqlik tenglamasi ishlab chiqilgan;

ipdagi buramlarning burchak tezliklarini to‘g‘ri tanlash, ya’ni buramlardan ip hosil qilishda burchak tezliklarini rasional qiymatida ipning taranglik kuchini oshirish orqali ip sifatini oshirishga erishilgan va unga ta’sir etuvchi kuchlarni matematik modeli olingan;

tolali qatlam zichligi va siqish sohasidagi qatlam qalinligi cho‘zish natijasida bir tekisda uzayishini ta’minlash uchun tolali qatlamning cho‘zishdagi deformatsiyasi tolali yoy qamrash burchagiga va ikkinchi silindr radiuslariga bog‘liqligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ip bo‘ylab buram taqsimlanishini yaxshilanishini, ip tarangligi bo‘yicha ravonligi, ipning uzilish kuchi, uzayishini ortishini hamda kesim va uzilish kuchi bo‘yicha notekisligini kamayishini ta’minlovchi cho‘zish valigi yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

halqali ip yigirish mashinalarida yigirilgan iplarni qo'llanishi va ipga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, ularning sifatini oshirish maqsadida yangi takomillashtirilgan cho'zish asbobi va klipsalar ishlab chiqilgan;

halqali yigirish mashinasi elementlari takomillashtirilgan cho'zish asbobi rejimining asosiy ishchi parametrlari va texnologik jarayonlarga ta'sir etishi matematik hisoblarda aniqlangan;

halqali ip yigirish mashinalarining yangi konstruksiyadagi cho'zish asbobi valigi va klipsaning optimal qiymatlari ishlab chiqilgan;

cho'zish natijasida bir tekisda uzayishini ta'minlash uchun tolali qatlamning cho'zishdagi deformatsiyasi tolali yoy qamrash burchagiga va ikkinchi silindr radiuslariga bog'liqligi asoslangan;

ipning sifat xossa ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi regression bog'lanishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi halqali yigiruv mashinalarining konstruktiv elementlarini takomillashtirish bo'yicha olingan nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprobasiya va qo'llash natijalarining ijobiyliigi, olingan tadqiqotlar natijalari va ularning ko'rib chiqilgan fan sohasidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahliliga ko'ra izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati halqali yigiruv mashinalari takomillashtirilgan cho'zish asbobi yuk valigi konstruksiyasi, dinamik va matematik modellari ishlab chiqilganligi hamda cho'zish asbobida klipsalardan foydalanishda ularning konstruksiyalarini tanlash ahamiyatligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati halqali yigiruv mashinasining yangi meyoriy texnologik parametrlari ishlab chiqilganligi, iplarning sifatini hamda ishlab chiqarish unumdorligini oshishi, uzilishlar sonini kamaytirish maqsadida yangi takomillashtirilgan yuk valigi yaratilganligi, halqali yigirish mashinasining yangi konstruksiyadagi klipsalari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Halqali yigiruv mashinasidagi texnologik jarayonlarni va parametrlarni optimallashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

yangi konstruksiyadagi ikki qatlamli elastik qoplamali yuk valiklariga O'zbekiston respublikasi intellektual mulk agentligining foydali modelga patenti olingan («Yigirish mashinasining ip cho'zish uskunasi», №FAP 01051). Yuk valiklari konstruksiyasi ishlab chiqilib, joriy etish natijasida, ip shakllanish zonasiga buram taqsimlanish qiymati 15,42% ga, buram taqsimlanish notekisligi 1,47 marta kamayishi, bu esa ip uzilishlar sonini 24 % kamaytirish imkonini berdi. Cho'zish asbobi tarkibidagi ishchi qismlar masofalarini to'g'ri tanlash, ip assortimentidan kelib chiqib klipsalarning tavsiyaviy konstruksiyasidan foydalanish orqali ipning uzilishlar soni 40% ga, Uster bo'yicha ip notekisligi 9% ga kamayishiga, ipning nisbiy uzilish kuchi 11,5% ga oshishiga erishilgan;

tadqiqot natijalarida, resurstejamkor, keng assortimentdagi, sifatli ip ishlab chiqarish tadqiq etildi. Ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyasi asosida olingan iplarni ishlab chiqarish «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi tizimidagi

«Namangan to‘qimachi holding» korxonalar tarmog‘idagi «HOME textile NT» MChJga tadbiiq etilgan («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2024 yil 27 noyabrda N03/25-3202-son ma‘lumotnomasi). Natijada ip sifati oshishiga, buram sonini kamaytirish orqali ish unumdorligini oshirishga, umumiy hisobdan iplarning uzilishini 36% ga kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta, shundan xorijiy jurnallarda 8 ta maqola nashr etilgan, ulardan Scopus bazasida indeksasiyalanadigan jurnallarda 2 ta maqola, shuningdek O‘zbekiston Intellektual mulk agentligidan 2 ta foydali modelga patent hamda 2 ta dasturga guvohnoma olingan, shuningdek 1 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 184 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, ob‘yekti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Halqali usulda ip yigirishning texnika va texnologiyalari holati va ularning tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi halqali yigiruv mashinalari konstruktiv elementlarini takomillashtirish, cho‘zish asbobi va uning detallariga qo‘yiladigan talablar, halqali ip yigiruv mashinalarida buram uchburchagining buram tarqalishi va ip tarangligiga ta‘siri tadqiqoti, yigirish mashinasida olingan ipning fizik-mexanik xossa ko‘rsatkichlarini yaxshilash yo‘llari va halqali yigirish mashinasida cho‘zish asbobi konstruksiyasini takomillashtirish masalalari bo‘yicha adabiyotlar tahliliga bag‘ishlangan.


Tahlil natijalari asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiya ishining «**Halqali yigirish mashinasi cho‘zish asbobi elementlarini tadqiqoti**» deb nomlangan ikkinchi bobida yigirish usullari va texnologik jarayonlarining xususiyatlarini tahlili va Yigirish texnika va texnologiyasining takomillishtirilganlik holati, Yigirish mashinalarida ipning uzilishi va uning tahlili natijasida, Cho‘zish asbobidagi ishchi element klipsalarning konstruksiyasi tadqiq etilgan. Tadqiqot ishining obe‘kti halqali yigirish mashinasida

ip uzilishlar sonini kamaytirish orqali ip sifatini yaxshilash bo‘lib, buning uchun cho‘zish asbobida klipsalardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Klipsaning vazifasi old valik bosim kuchini kamaytirish, tolalarning tartibli harakatlanishini nazorat qilish va ipning chiziqli zichlik bo‘yicha notekisligini kamaytirish.

Tajribalar davomida halqali yigirish mashinasi cho‘zish asbobidagi o‘rta valiklarga turli o‘lchamdagi klipsalar mahkamlanib, ularning ip uzilishlar soni va ip sifatiga ta’siri o‘rganilgan (1-rasm).



1-rasm. Cho‘zish asbobi o‘rta valigiga klipsalarning o‘rnatilishi

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, korxonadagi ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan klipsalarga nisbatan Polaris firmasi klipsalari o‘rnatilganda uzilishlar soni 40%ga, tajribaviy klipsalar o‘rnatilganda esa uzilishlar soni 23%ga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Bu mashinalar ish unumdorligini oshirishda va ayniqsa, ipning sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.


Korxonada FA-516 rusumli halqali yigirish mashinasi o‘rnatilgan bo‘lib, bitta mashinadagi urchuqlar soni 516 ta. Tajribalarni 10 tadan urchuqda o‘tkazilganini inobatga olsak, 1ta mashinada 1 soatdagi uzilishlar soni (3-rasm):

- oddiy klipsalar o‘rnatilganda - 174 marta (100%);
- Polaris firmasi klipsalari o‘rnatilganda – 103 marta (60%);
- tajribaviy klipsalar o‘rnatilganda – 135 martani (77%) tashkil etdi.




2-rasm. Tajriba o'tkazilayotgan yigirish mashinasi

Agar korxonadagi umumiy mashinalar soniga nisbatan uzilishlar sonini inobatga olinsa, yuqoridagit ko'rsatkichlarni farqi yanada ortadi.




3-rasm. Tajriba davomida iplarning uzilishlar soni

Olib borilgan tajribalar davomida mashinada ipning uzilishlar soni kamayishi bilan bir qatorda ipning ayrim xossa ko'rsatkichlari yaxshilangani kuzatildi. Barcha sinov natijalari davomida cho'zish asbobida Polaris firmasi klipsalari o'rnatilgan iplarda ingichka joylar (Thin) soni, yo'g'on joylar (Thick) soni, ipning nisbiy uzilish kuchi keskin yaxshilangani kuzatildi (4, 5-rasm).



4-rasm. Tajribaviy iplarning Uster ko‘rsatkichlari va Uster bo‘yicha notekisliklari



5-rasm. Tajribaviy iplarda yo‘g‘on joylar (Thik) va nepslar soni

Yuqoridagi rasmlardan ko‘rinadiki, dastlab tajriba uchun yasalgan simli klipsada ipning uzilishlar soni va ipning xossa ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Mashinaning ish unumdorligi va ip sifati ortishiga erishildi. Tajribalar davom ettirilib, Polaris firmasi tomonidan taklif etilgan simli klipsalar korxonaga olib kelindi va mashinaga o‘rnatildi. Natijada ipning uzilishlar soni 40%ga kamaydi, ipning nisbiy uzilish kuchi 11,5%ga oshdi, Uster bo‘yicha ip notekisligi 9%ga kamayishiga erishildi. Shu bilan bir qatorda ipning sifatiga ta‘sir etuvchi qator xossa ko‘rsatkichlari USTER STATISTICS 2023 bo‘yicha yaxshilangan va sinfi oshdi.

Dissertatsiyaning «**Halqali yigirish mashinasining takomillashgan cho‘zish asbobining ip shakllanishi va sifatiga ta‘sirini tadqiq etish**» deb nomlangan uchinchi bobida halqali yigirish mashinasi takomillashtirilgan cho‘zish asbobining chiqaruvchi juftligiga o‘rnatilgan yuk valiklarini tashqi va ichki rezinali elastik qoplamalari chiziqiy zichligi 20 teks bo‘lgan ipning fizik-mexanik va geometrik xususiyatlariga ta‘siri tadqiq etilgan.

Tajriba rejasiga asosan chiziqiy zichligi 20 teksli ip halqali yigirish mashinasining cho‘zish asbobi chiqaruvchi silindrlari ustiga o‘rnatilgan fabrika valiklari beshta dona takomillashtirilgan yuk valiklari bilan almashtirilib, ko‘p omilli tajribalar o‘tkazildi.



6-rasm. Qayishqoq tarkibli valiklar qoplamasi tasviri

Barcha variantdagi iplarning kesim bo‘yicha notekisligi va tashqi ko‘rinish nuqsonlari Uster Tester 5-S400 asbobida aniqlandi. Sinov natijalari jadvalga jamlandi.

Tadqiqotlar natijasida olingan 4-variantda iplarning kesim bo‘yicha kvadratik notekisligi S_m (yuk valiklarining diametri 30 mm, yuk valiklarining ichki rezinali elastik qoplamasi qattiqligi Shor A 55 va valiklarga beriladigan yuk 2,1 bar bulganda) 11,66% kamayib, USTER STATISTICSning 29% sinfi talabiga javob beradi.

9-variantda yuk valiklarining diametri 26 mmga kichik, ichki rezinali elastik qoplamasi qattiqligi minimal Shor A 45 va valiklarga beriladigan yuk 2,0 bar bo‘lganda iplarning kesim bo‘yicha kvadratik notekisligining oshishiga, ya‘ni $S_m=12,83\%$, USTER STATISTICSning 68% sinfi mos keldi.

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ingichka va yo‘g‘on joylarning eng kam miqdori 4-variantda. 7- va 8-variantlardagi ko‘rsatkichlar ham ancha yaxshi.


Cho‘zish asbobining chiqaruvchi silindr yuk valiklarining diametri, valiklarga beriladigan yuk miqdori kamayishi va ichki vtulkaning qattiqlik darajasini orttirish nazoratdagi tolalarning harakatini yomonlashishiga hamda ipdagi ingichka va yo‘g‘on joylarning ko‘payishiga olib keladi.

Eng ko‘p 1 km ipga to‘g‘ri keladigan yo‘g‘on joylar soni 55 ta, ingichka joylar 152,5 tani tashkil qilib, bu ko‘rsatkichlar 9-variantga to‘g‘ri keladi.


Olingan natijalar cho‘zish nazariyasining asosiy taxminlariga mos keladi.

Valiklardagi yuk oshishi bilan tolalar tutami bilan yuk valiklari orasidagi kuchlanish va ishqalanish kuchi maydoni (1 mm tolaga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishqalanish kuchi) uzunligi oshadi.

Yuk valiklarining diametri oshishi bilan kuchlanish va ishqalanish kuchi maydoni kamayadi, maydon uzunligi esa ortadi.



7-rasm. Cho'zish asbobining shaylash parametrlariga bog'liq bo'lgan ipdagi yo'g'on va ingichka joylarining miqdori



8-rasm. Cho'zish asbobi parametrlarining ipning nisbiy uzilish kuchi va uzish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyentiga ta'siri

8-rasmdan quyidagilarni ko'rish mumkin:

-ipning eng katta uzish kuchi (15,32 gs/teks) va eng kichik variatsiya koeffitsiyenti ($S_v=8,4\%$) 4 variant, ya'ni yuk valiklarining diametri (30 mm), yuk valiklarining ichki rezinali elastik qoplamasi qattiqligi Shore A 55 va valiklarga beriladigan yuk miqdori 2,1 bar bo'lganda erishilgan.

-yuk valiklarining diametri kichrayishi, ichki rezinali elastik qoplamaning qattiqligi, valiklarga beriladigan yuk miqdorini minimal tajriba ko'rsatkichlarida (9 variant), ya'ni ipning solishtirma nisbiy uzilish kuchi 14,2 gs/teks, variatsiya koeffitsiyenti 9,9% gacha, sifat ko'rsatkichi 1,434 ga kamayishi (bu ko'rsatkich 4 variantda 1,82 ga teng) ip sifati keskin 21,2% ga kamayishini kuzatish mumkin.

8-rasmdan ko'rinib turibdiki, 4 (yuk valiklarining diametri 30 mm, yuk valiklarining ichki rezinali elastik qoplama qattiqligi Shor A 55 va valiklarga beriladigan yuk 2,1 bar) variant buyicha ishlab chiqarilgan iplarda eng ko'p uzayish bo'lib, bu ip ishlab chikarish texnologiyasida katta ahamiyatga ega, chunki ip oldin ma'lum bir kattalikda cho'ziladi va undan keyin uning ta'sirida kuchlanish paydo bo'ladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ip ishlab chiqarish texnologiyasida deformatsiya katta ahamiyatga ega.

Uzishdagi ishni muhimligi keyingi qayta ishlash va texnologik jarayon davomida aniqlanadi. Ipnig pishiqligi ortishi va notekisli kamayishi natijasida yigirish mashinalarida uzilishlar soni o'rtacha 20,9% kamaydi.

Har bir omilning asosiy optimallashtirish parametrlarga ta'sir etish darajasini aniqlash hamda omillarni o'zgartirib ip sifatini prognoz qilish uchun regressiya tenglamalari ko'rinishidagi matematik modellarni quramiz.

Takomillashtirilgan cho'zish asbobining shaylash parametrlarini optimallashtirish masalasini yechish uchun to'la omilli tajriba o'tkazildi, ya'ni barcha omillar o'rtasidagi hamma qaytarilmaydigan kombinatsiyalar miqdorlari nazarga olinadi, chunki to'qimachilik tadqiqotlarida bu usul muqobil variantni izlashda eng samarali usul deb hisoblanadi.

Hamma tajribalar 3 qaytarilishda o'tkazildi. Muqobillash parametrlariga quyidagilar kiradi:

- ipning kesim bo'yicha kvadratik notekislik, % (Y_1);
- ipning solishtirma uzilish kuchi, sN/teks (Y_2);
- ipning uzilish kuchi bo'yicha kvadratik notekislik, % (Y_3);

Har bir optimallashtirish parametri uchun regression tenglama olindi. Regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatga molikligi Student mezonidan yordamida, tenglama adekvatligi esa Fisher mezonidan yordamida aniqlandi.

Ahamiyatga molik bo'lmagan koeffitsiyentlarni olib tashlagandan so'ng regressiya tenglamalari (1-3) quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Ipnig kesim bo'yicha notekisligi, y_1 , %

$$y_1 = 12,12 - 0,2x_1 + 0,11x_2 - 0,265x_3 + 0,335x_1x_2 + 0,005x_1x_3 + 0,175x_2x_3 + 0,0667x_1^2 + 0,107x_2^2 + 0,0917x_3^2 \quad (1)$$

2. Ipnig solishtirma uzilish kuchi, y_2 , sN/teks

$$y_2 = 14,76 + 0,235x_1 - 0,188x_2 + 0,238x_3 - 0,245x_1x_2 - 0,16x_2x_3 + 0,0375x_1x_3 - 0,048x_1^2 - 0,138x_2^2 - 0,062x_3^2 \quad (2)$$

3. Ipnig uzilish kuchi bo'yicha kvadratik notekisligi, y_3 , %


$$y_3 = 9,09 - 0,283x_1 + 0,183x_2 - 0,35x_3 + 0,4x_1x_2 - 0,025x_1x_3 + 0,25x_2x_3 + 0,0266x_1^2 + 0,126x_2^2 + 0,127x_3^2 \quad (3)$$

(1)-(3) tenglamalar adekvatligini tekshirish uchun y_1 , y_2 , y_3 larning hisobiy qiymatlari aniqlandi. Olingan tenglamalarni adekvatligini Fisher mezoni yordamida tekshirildi. Tenglamalarni adekvatligida ishonch hosil qilib, takomillashtirilgan cho‘zish asbobining elastik qoplami valikli diametri, valiklardagi yuk miqdori ipning ichki notekisligi, uning uzilish kuchi va uzilish kuchi bo‘yicha notekisligiga ta’sir etadi degan hulosaga keldik.


Qurilgan matematik model regression tenglamalar bog‘lanishlari orqali har bir omil qiymatini ip sifatiga ta’sirini muqobillash vazifasi ifodalandi: kesim bo‘yicha notekislikni pastdan nisbiy uzilish kuchini va tepadan uzilish kuchi bo‘yicha notekislikni cheklab kamaytirish. Bu muqobillash vazifasiga yuk valigini diametri 30mm, valikning ichki qoplama qattiqligi 55 Shore A va valiklardagi yuk miqdori 2,1 bar ga teng bo‘lgan variant javob beradi.

Dissertatsiya ishining «**Taklif etilayotgan tarkibli uch qatlamli valiklarni ip shakllanishiga ta’sirini nazariy tadqiqoti**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida nazariy tadqiqotlarda cho‘zish asbobi riflyali silindridan tolalarning o‘tishdagi tarangligi o‘rganildi. Cho‘zish asbobi tarkibli valiklari o‘qlarining vertikal tebranish qamrovining pilikni cho‘zishga qarshiligi amplitudasining o‘zgarishiga bog‘liqlik grafigi qurildi. Tajriba natijalari hamda cho‘zilayotgan pilik notekisligini hamda ta’sir kuchi (2,3÷3,0) N oralig‘ida bo‘lishini hisobga olinganda, birinchi yuklovchi valik o‘qi tebranish qamrovi $(1,7 \div 2,4) \cdot 10^{-3}$ m, ikkinchi valik o‘qining $(1,3 \div 1,65) \cdot 10^{-3}$ m va uchinchi valik o‘qi tebranish qamrovi $(0,7 \div 1,1) \cdot 10^{-3}$ m oralig‘ida bo‘lishi tavsiya qilingan.

Taklif etilayotgan takomillashtirilgan cho‘zish texnologiyasida uskunaning uchta riflyali pastki silindrlari 1, 2, 3 va usti elastik qoplama uchta yuk valiklari 4, 5, 6 juftliklaridan, prujinali yuklash richagi 7 tarkib topgan. Elastik qoplama valiklar 4, 5, 6 o‘qi konussimon prujinalar 8, 9, 10 bilan bog‘langan (9-rasm).



9-rasm. Riflyalardagi ipning harakat sxemasi.



10-rasm. Ipning dastlabki riflyadagi yoy bo‘ylab dastlabki harakat sxemasi

Ipning AB yoy bo‘yicha uzunligi S va R radiusli ipning o‘zgarmas φ - qamrash burchagidan o‘tadi. Tolalar va riflya orasidan ishqalanish koeffitsiyenti Amonton qoidasiga asosan, yani:


$$T_{max} = k \cdot N \quad (4)$$

k -ishqalanish koeffitsiyenti, N -tolali qatlamga sirt yuzasida ta’sir qiluvchi normal bosim kuchi.


Tolalarning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlari $T_1(t)$ va $T_2(t)$ tarzda o‘zgarsa $T_2 > T_1 \cdot S$ bo‘lsa ip harakatda bo‘ladi. Ipning harakat qonunini va uning chiqishdagi tarangliklarni aniqlaymiz.

$$T_2(t) = \left[T_1 - \mu \cdot \vartheta^2 + \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot \left(l_1 + \frac{r}{k} - \int_0^{l_1} \vartheta \cdot dt \right) \right] \cdot e^{\frac{k}{r} \cdot (l_1 - \int_0^{l_1} \vartheta \cdot dt)} - \frac{\mu \cdot r}{k} \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k \cdot \vartheta^2}{r} \right) \quad (5)$$


(5) tenglama kirishdagi va chiqishdagi tarangliklarni ifodalovchi tenglama. Bu tenglamadan foydalanib Marle dasturidan grafiklarda tahlil qilamiz.



11-rasm. Kirishdagi tolali qatlamning tarangligini turli xil tezliklarda $v_1 = 20 \text{ m/s}$, $v_2 = 30 \text{ m/s}$, $v_3 = 40 \text{ m/s}$ qamrash burchagiga bog‘liqlik grafigi.



12-rasm. Chiqishdagi ipning tarangligini turli xil buramlarda $K_1 = 400 \text{ bur/metr}$, $K_2 = 500 \text{ bur/metr}$, $K_3 = 600 \text{ bur/metr}$ qamrash burchagiga bog‘liqlik grafigi.



$$A_1B_1 = S_1 - T_1^*; A_2B_2 = S_2 - T_2^*; A_3B_3 = S_3 - T_3^*$$

13-rasm. Tolali qatlamning uchta ketma-ket riflyalardan o'tishdagi yoy bo'ylab harakat sxemasi

Yuqoridagi grafiklarda har bir riflyalardan o'tishdagi iplarning buramlar sonini kamaytirish orqali ipning tarangligini oshirishda tolalar oqimining tezliklarini va urchuqning aylanishlar soni ratsional tanlash orqali ipning sifat ko'rsatkichlarini oshirish masalasi ko'rilgan. Bu yerda $\varphi_1, \varphi_2, \varphi_3$ ipning har bir oraliqdan o'tishdagi qamrov burchaklari.

Har bir riflyadan o'tayotgan ipning zichligini oshirish va shu orqali ipning tarangligini tahlil qilishda ipning A_1B_1, A_2B_2 va A_3B_3 yoylardan o'tishdagi zichlikni oshirishda Amonton qoidasiga asosan ko'rib chiqamiz. Har bir reflyadagi ipning tarangligini quyidagicha aniqlanadi.

$$T_1^* = \mu \cdot N_1, T_2^* = \mu \cdot N_2, T_3^* = \mu \cdot N_3$$

bu yerda: μ -ishqalanish koeffitsiyenti, $N_1N_2N_3$ - ipga yuzasida ta'sir qiluvchi normal reaksiya kuchlari. Iplarning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlari $T_1^*(t)$ va $T_2^*(t)$ tarzda o'zgarsa $T_2^*(t) > T_1^*(t)$ bo'lsa ip harakatda bo'ladi. Ipning harakat qonunini va uning chiqishdagi tarangligini aniqlaymiz. Ipning cho'zilishdagi tarangligini aniqlashda uning tezligiga bog'liqlik harakat differensial tenglamasini hosil qilamiz:

$$\frac{1}{\mu} \cdot \frac{\partial T}{\partial S} = \frac{d\vartheta}{dt} \quad (6)$$

bundan

$$T = \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot S + C_3(t) \quad (7)$$

kelib chiqadi.

Har bir riflyadan o'tishdagi qamrov burchaklariga bog'liqlik ifodasini quyidagi differensial tenglamalarda ifodalaymiz.

$$\begin{aligned} \frac{1}{\mu} \cdot \frac{\partial T_1^*}{\partial S_1} - k \cdot N_1 &= \frac{d\vartheta}{dt} \Rightarrow \frac{1}{\mu} \cdot T_1^* - k \cdot N_1 = \omega \cdot r \\ \frac{1}{\mu} \cdot \frac{\partial T_2^*}{\partial S_2} - k \cdot N_2 &= \frac{d\vartheta}{dt} \Rightarrow \frac{1}{\mu} \cdot T_2^* - k \cdot N_2 = \omega \cdot r \\ \frac{1}{\mu} \cdot \frac{\partial T_3^*}{\partial S_3} - k \cdot N_3 &= \frac{d\vartheta}{dt} \Rightarrow \frac{1}{\mu} \cdot T_3^* - k \cdot N_3 = \omega \cdot r \end{aligned} \quad (8)$$

bu ifodalardan

$$\begin{aligned}
\frac{\partial T_1^*}{\partial S_1} - \frac{k}{r} \cdot T_1^* &= \mu \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \cdot \vartheta^2 \right) \\
\frac{\partial T_2^*}{\partial S_2} - \frac{k}{r} \cdot T_2^* &= \mu \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \cdot \vartheta^2 \right) \\
\frac{\partial T_3^*}{\partial S_3} - \frac{k}{r} \cdot T_3^* &= \mu \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \cdot \vartheta^2 \right)
\end{aligned} \tag{9}$$

(9) tenglamalarni integrallab har bir reflyadan o'tuvchi ipning taranglik kuchlarini aniqlaymiz

$$\begin{aligned}
T_1^* &= C_6(t) \cdot e^{\frac{k}{r} \cdot S_1} - \frac{\mu \cdot r}{k} \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \cdot \vartheta^2 \right) \\
T_2^* &= C_7(t) \cdot e^{\frac{k}{r} \cdot S_2} - \frac{\mu \cdot r}{k} \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \cdot \vartheta^2 \right) \\
T_3^* &= C_8(t) \cdot e^{\frac{k}{r} \cdot S_3} - \frac{\mu \cdot r}{k} \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \cdot \vartheta^2 \right)
\end{aligned} \tag{10}$$

(10) tenglamalardan har bir riflyadan o'tishdagi tolali qatlamning tarangliklarini o'zgarish qonuniyatini aniqlaymiz. Bu yerda $C_6(t)$, $C_7(t)$ va $C_8(t)$ o'zgarish qiymatlari.

$$\begin{aligned}
T_1' &= T_1^*(t) = \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \left(S_1 - \int_0^{t_1} \vartheta \cdot dt \right) \\
T_2' &= T_2^*(t) = \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot \left(S_2 - \int_{t_1}^{t_2} \vartheta \cdot dt \right) \\
T_3' &= T_3^*(t) = \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot \left(S_3 - \int_{t_2}^{t_3} \vartheta \cdot dt \right)
\end{aligned} \tag{11}$$

shartlardan quyidagicha ifodalaymiz

$$\begin{aligned}
C_6(t) &= T_1' - \mu \cdot \vartheta^2 + \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot \left(S_1 + \frac{r}{k} - \int_0^{t_1} \vartheta \cdot dt \right) \cdot e^{-\frac{k}{r}} \cdot \left(S_1 - \int_0^{t_1} \vartheta \cdot dt \right) \\
C_7(t) &= T_2' - \mu \cdot \vartheta^2 + \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot \left(S_2 + \frac{r}{k} - \int_{t_1}^{t_2} \vartheta \cdot dt \right) \cdot e^{-\frac{k}{r}} \cdot \left(S_2 - \int_{t_1}^{t_2} \vartheta \cdot dt \right) \\
C_8(t) &= T_3' - \mu \cdot \vartheta^2 + \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot \left(S_3 + \frac{r}{k} - \int_{t_2}^{t_3} \vartheta \cdot dt \right) \cdot e^{-\frac{k}{r}} \cdot \left(S_3 - \int_{t_2}^{t_3} \vartheta \cdot dt \right)
\end{aligned} \tag{12}$$


aniqlangan $C_6(t)$, $C_7(t)$ va $C_8(t)$ qiymatlarini (11) tenglamalarga qo'yamiz.

$$\begin{aligned}
T &= T_1^* + T_2^* + T_3^* - \mu \cdot \vartheta^2 + \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} \cdot \left(S_1 + S_2 + S_3 - \int_0^{t_1} \vartheta \cdot dt - \right. \\
&\quad \left. - \int_{t_1}^{t_2} \vartheta \cdot dt - \int_{t_2}^{t_3} \vartheta \cdot dt \right) \cdot e^{-\frac{k}{r}} \cdot \left(S_1 + S_2 + S_3 - \right. \\
&\quad \left. - \int_0^{t_1} \vartheta \cdot dt - \int_{t_1}^{t_2} \vartheta \cdot dt - \int_{t_2}^{t_3} \vartheta \cdot dt \right) - \frac{\mu \cdot r}{k} \cdot \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \cdot \vartheta^2 \right)
\end{aligned} \tag{13}$$


Bu yerda $T_1' = T_1^* + T_2^* + T_3^*$, $S_1 = r \cdot \varphi_1$, $S_2 = r \cdot \varphi_2$, $S_3 = r \cdot \varphi_3$, ga teng bunda (13) tenglama uchta riflyadan o'tuvchi ipning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlarini ifodalovchi tenglamani riflyalar orasidagi masofalariga, qamrash

burchaklariga ipdagi buramlar soniga va chiqishdagi tezligiga bog‘liqlik tenglamasi keltirilgan. Bu tenglamadan foydalanib Marle dasturi orqali grafiklarda tahlil qilingan.

Quyidagi grafiklar tahlilidan har bir riflyadan o‘tuvchi ipning taranglik kuchini tezliklarining ratsional qiymatini to‘g‘ri tanlash orqali buramlar sonini $K_1 = 400$ kamaytirish hisobiga ipning taranglik kuchini oshganligini ko‘rishimiz mumkin.



14-rasm. Kirishdagi tolali qatlarning tarangligini turli xil tezliklarda $v_1 = 20$ m/s, $v_2 = 30$ m/s, $v_3 = 40$ m/s qamrash burchagiga bog‘liqlik grafiqi.



15-rasm. Chiqishdagi ipning tarangligini turli xil buramlarda $K_1 = 400$ bur/metr, $K_2 = 500$ bur/metr, $K_3 = 600$ bur/metr qamrash burchagiga bog‘liqlik grafiqi.

Grafiklar tahlilidan iplarning taranglik kuchini oshirishda ipning buramlar soni chiziqli tezligini to‘g‘ri tanlash orqali ipning uzilish kuchini oshirish masalasi ko‘rilgan. Bunda buramlar sonini kamaytirish hisobiga riflyalarni oraliq masofasini to‘g‘ri tanlash va chiziqli tezliklarini ratsional qiymatini aniqlash orqali ipning taranglik kuchini oshirishga erishilganini grafiklardan ko‘rishimiz mumkin.

Takomillashtirilgan cho‘zish asbobida iplarda buram hosil bo‘lishdagi ipning harakatini dinamik tahlili keltirilgan buramlar soniga ta’siri natijasida ipning mustahkamligini oshirish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Dalamber prinsipidan foydalanib ko‘rilayotgan masalani quyidagicha ifodalaymiz.

$$\begin{aligned} \frac{1}{\mu_0} \cdot \frac{d}{ds} \left(T \cdot \frac{dx}{ds} \right) &= 0 \\ \frac{1}{\mu_0} \cdot \frac{d}{ds} \left(T \cdot \frac{dy}{ds} \right) &= -\omega^2 \cdot y \end{aligned} \quad (14)$$


ipning buram hosil qilishdagi yuza bo‘yicha o‘zgarishi.

Iplarning hosil bo‘lishidagi aylanish ifodasi quyidagicha aniqlanadi:

$$y = \frac{2 \cdot \sqrt{a \cdot (l - a)}}{\pi \cdot n} \cdot \sin \left(\frac{\pi n}{a} x \right). \quad (15)$$

Ushbu

$$\ddot{y} = -\frac{\mu_0 \cdot \omega^2}{C_1} \cdot \left(1 + \frac{1}{2} \dot{y}^2\right) \cdot y \quad (16)$$




16-rasm. Buramlarning ip hosil qilishdagi tolalarning harakat sxemasi

(16) differensial tenglamadan foydalanib ipning taranglik kuchi quyidagicha ifodalaniladi.


$$T = \frac{\mu_0 \cdot \omega^2 \cdot a^2}{\pi^2 \cdot n^2} \left[1 + 2 \cdot \frac{l-a}{a} \cdot \cos^2\left(\frac{\pi \cdot n}{a} \cdot x\right)\right] \quad (17)$$

(15) va (17) tengliklardan hosil bo'ladigan ipning buramlar sonini hosil qilishda ipning harakatini hamda taranglik kuchlarini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlil qilingan.


Quyidagi grafiklardan ip sifatini oshirishdagi ip buramlarining burchak tezliklarini to'g'ri tanlash ya'ni buramlardan ip hosil qilishda burchak tezliklarini ratsional qiymatida ipning taranglik kuchini oshirishga erishilgan.



17-rasm. Ip hosil bo'lishda buramlarning burchak tezliklarini turli xil qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi




18-rasm. Ip hosil bo'lishda taranglik kuchini burchak tezliklarini turli xil qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi



19-rasm. Ip shakllantirish zonasida ikkinchi silindrda ip hosil qilishda turli xil burchakdagi qamrash burchagi 1 – $\varphi_2 = 15^\circ$, 2 – $\varphi_2 = 30^\circ$, 3 – $\varphi_2 = 45^\circ$, 4 – $\varphi_2 = 60^\circ$ 5 – $\varphi_2 = 75^\circ$ qiymatida va burchak tezligiga bog'liqlik grafiglari

Ishqalanish kuchi ko'p jihatdan ip shakllanish zonasida silindr va iplarning bikrligiga hamda deformatsiyalanish qiymatiga, ya'ni zichligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Ip shakllanish zonasi bilan iplar orasidagi ishqalanish kuchini bikrlik koeffitsiyentlariga bog'liqlik keltirilgan. Qurilgan grafiglar tahlili shuni taqozo etadiki, ip shakllanish zonasi buramlarning umumiy bikrlik koeffitsiyenti 2.8 sN/mm da 8.0 sN/mm hamda silindrning radius qiymati $r = 17.5 \text{ mm}$ bo'lganida ishqalanish kuchi $0.19 \cdot 10 \text{ sN}$ dan $0.52 \cdot 10 \text{ sN}$ gacha chiziqli bog'lanishda ortib boradi. Ip shakllanish zonasidagi buramlar orasidagi ishqalanish kuchi $0.45 \cdot 10 \text{ sN}$ dan $1.12 \cdot 10 \text{ sN}$ gacha chiziqli qonuniyatda ortib boradi. Demak, ip shakllantirish zonasida buramlar orasidagi ishqalanish kuchini ko'paytirish uchun buramlar sonini kamaytirish orqali bikrlik koeffitsiyentlari ($7.0 \div 9.0$) sN/mm oralig'ida tanlash maqsadga muvofiqdir. Bunda silindr radiusi $r = 17.5 \text{ mm}$ bo'lishi tavsiya etiladi. Silindrning tezligi, ya'ni ish unumi asosan burchak tezligiga bog'liqdir.




